

4. Mattheson D. Media Discourses: Analysing Media Texts. Issues in Cultural and Media Studies. Open University Press. 2005. – 224 p.
5. Montgomery M. Discourse of Broadcast News. A linguistic approach. Routledge. 2007. – 246 p.
6. Дадабаева Х., & Тешабаева, Д. (2024). Роль акта в формировании коммуникативной компетентности при обучении иностранным языкам курсантов военного образования. in Library, 3(3), 235–242. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/28409>

## JURNALISTIKADA MEDIAMETRIK MATN TAHLILI INTERPRETATSIYASI

*Madina NURUTDINOVA  
O'zJOKU Raqamlı media va  
internet jurnalistika kafedrası dotsenti*

**Annotatsiya.** Amerikalik sotsiolog Olim Gabriel Lassuelning shunday fikri bor “Istalgan kommunikatsiyaning uch asosiy vazifasi bor: ular atrofdagi vogelikni boshqarishga xizmat qiladi; turli ijtimoiy subyektlarning vogelikka munosabatini o'zaro bog'lash vositasidir; madaniyat va qadriyatlarning uzatilishini ta'minlaydi” aytib o'tilgan vazifalar internet OAVga ham tegishli bo'lib, uning tarixiy rivojlanishida bir qator o'ziga xos funksiyalarni shakllanishiga xizmat qildi. Ularning amalga oshishida muayyan mamlakatlardagi ijtimoiy iqtisodiy siyosiy vazyait muqarrar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir ko'rsatish quroli esa kontent vositasidir<sup>19</sup>. Tarixda ilk uzatilgan kontentlar matn formatida edi (birinchi uzatilgan matn bu LOG belgisi bo'lgan). Keyinchalik texnik taraqqiyotda kontekst rivojlanib multimedaviy birliklar, gippetakstual havolalar hamda turli yangi vazifalarni qamrab oldi. Endilikda uzatilayotgan matn nafaqat axborot vositasi balki boshqaruv quroliga ham aylandi. Shu boisdan kontentni yetarli darajada o'rganish va tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Kalit so'zlar.** Breeding, mediametrik matn, onlayn-jurnalistika.kontent-tahlil, kontekst, onlayn-kontent, robotlashtirilgan dastur, sotsiologik tahlil usullari.

Jadal rivojlanib borayotgan texnik taraqqiyot tufayli internet turli sohalar va fanlarni qamrab olmoqda. Shu boisdan ham kontentlarni o'rganish amaliyoti ham bevosita turli soahalarda bir qancha vazifalarga ega. Kontent - tahlil bu ma'lum bir konteksti tadqiq qilish degan ma'noni anglatadi. Axboriy nashrlarda bu matnga baho

<sup>19</sup> [http://socmedia.by/wp-content/uploads/2018/10/Лекция-3\\_Медиаметрия-и-рейтинги-СМИ.pdf](http://socmedia.by/wp-content/uploads/2018/10/Лекция-3_Медиаметрия-и-рейтинги-СМИ.pdf)

berish sifatida o’rganilsa, saytlar va portallarda turli rejalar tuzish va strategiyani interpretatsiya qilish sifatida o’rganiladi. Biznesda kontent analiz bu korporatsiya aktivlarini boshqarish, turli yangi biznes strategiyalar tuzish, OAVda brending orqali savdoni ko’tarish, marketing targetting amaliyoti orqali narxga ta’sir qilishni anglatadi. Asli sotsiologiya va psixologiyadan kirib kelgan kontent tahlil ko’proq jurnalistik matnlarga o’rganish amaliyotida keng fo’llanila boshlandi. Jurnalistika sohasidagi transformatsiyaning yana bir sababi an’anaviy hamda internet OAVning integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan Multi-skilling (ingliz tilidan-ko’p qirrali) – “yangi media” yo’nalishi hisoblanadi. Ikki yo’nalish birlashuvidan yuzaga kelgan onlayn jurnalistika ma’lumotlar tarkibini individuallashtirish orqali ommani uzlusiz axborot qabul qiluvchi global qatlamga aylantirdi<sup>20</sup>. Bu holatda jurnalistning ijtimoiy vazifasi, aloqani takomillashtirish hamda axborotni iqtisodiy, siyosiy sohalardagi yangi yo’nalishda ishlab chiqishni taqazo etadi. Sohaga oid muammolarni qayta ko’rib chiqishning eng optimal yechimi bu aynan onlayn jurnalistika konsepsiysi va faoliyat strategiyasini ishlab chiqishdir. Sohaning o’ziga xos xususiyati bu zamonaviy kommunikatsiya tendensiyalari bilan universal faoliyat yuritib, ma’naviy, ijtimoiy-psixologik muammolarni birlashtira olishida belgilanadi. U mazkur kasbning faol fenomeni sifatida jamiyatda tanqidchi, tahrirchi, vazifasini xolis yondashib bajarishi lozim. Kontent tahlil (content analysis) ingliz tilidan kontentni tahlil qilish fanlar sohasidagi standart tadqiqot monitoringi hisoblanadi. Matn tarkibi va kommunikativ yozishmalarni o’rganish usuli sifatida ham tilga olinadi. Tahlil asosan g’oya mavzusi va matn tarkibidan kelib chiqib yondashiladi. Tahlil qiliishdagi asosiy maqsad onlayn kontent faoliyatini ijobiy jihatdan o’stirish va yaxshilash maqsadida turli tadqiqotlarni amalga oshirishdir. Sifat ko’rsatkichlarini o’rganib borish maqsadida mutaxassislar kontent tahlildan kelib chiqqan holda obyekt uchun yangi faoliyat yo’nalishlari va takliflarni ishlab chiqadi. Xulosa natijalari turli muammolar va asosiy kamchilik nuqtalari aniqlanib, kerakli strategiyalar aniqlab beriladi.

---

<sup>20</sup> <https://studfile.net/preview/9237059/page:2/>

Matnning tarkibi, formati o’rganilib uni turli dasturlar asosida tahlillash yoki umumiylazmuniidan mantiqiy mediametrik baholov o’tkazish mumkin.

Mavjud kontentni tahlillash texnikasi ayniqsa globallashuv asrida keng ommalashib bormoqda. Bunga asosiy sabab bugungi kun iste’molchisi axborot ko’laming oshib borishi yoki kommunikatsiya maydonida ulkan ma’lumotlar bo’shlig’ining hosil bo’lishidandir. Bunday vaziyatda kontent yaratuvchilar iste’molichining diqqatini tortish borasida turli ishlarni amalga oshiradi. Matnda diqqatni tortish amaliyoti fanda “Hook” ya’ni ilmoq nomi bilan mashhur turli sohalar yoki fanlarning iste’molchilarga nisbatan matn samaradorligini oshirish maqsadida texnik tahlillash ishlari amalga oshirilgan. Bunda asosan maxsus moslashtirilgan dasturlardan keng foydalanilar edi. Ammo mazkur robotlashtirilgan dasturlarga qadar kontentlarni amaliy tahlil qilish amaliyoti qo’l mehnati yordamida birma bir qilingani tarixdan mavjud ma’lum. Misol sifatida bir qancha nazariy keltirish mumkin. Masalan, XVIII asrda Shvetsiyadagi aksariyat bosmaxonalarda kitoblar sifati va kontent tarkibini o’rganuvchi maxsus guruh mavjud bo’lgan<sup>21</sup>. Ushbu guruhning faoliyati asosan chop qilinayotgan kitoblarni o’qib o’rganib chiqish bo’lgan. Mazkur guruh hukumat yoki qirolik oilasi tomonidan moliyalashtirib borilgan. Ammo aynan to’liq kontentlarni tahlillash metodikasining zamonaviy namunalari AQSH olimlari (B. Mettyu, A. Tenni)ga tegishli. Ushbu metodikaga binoan 30 yillarda maxsus tahlillash usullari o’ylab topilgan. Bu tahminan XIX asrdagi kontentlarni mediametrik baholovchi metodik usullar sifatida mashxur. Kontentlarni o’rganish amaliyoti tadqiqotchilarining nazdida sodda va intuitiv hodisa sifatida baholanadi. Matnlarni o’rganayotganda undagi tarkib, mazmun va barcha komponentlarni turli darajada qisman tushunib olishimiz ham tahlilning bir qismi hisoblanadi. Kontentlarni tahlillash metodikalarining asosiy vazifasi ana shu g’oyaviy mantiqni birlashtirish asosida matn samaradorligini oshirishga qaratiladi. Matnlarni tahlillash amaliyoti bilan bog’liq bir qancha jarayonlarni hisobga olgan holda axborot bilan ishlashga ixtisoslashgan barcha sohalarda mavjud bo’lgan. Jumladan, siyosat, iqtisod, sotsiologiya, biologiya, tibbiyot, psixologiya, matematika hamda zamonaviy

<sup>21</sup> <https://ru.wikipedia.org/>

texnologiyalar amaliyoti fikrimizning isbotidir. Ammo har bir sohada uni qo'llash va amaliyotga tadbiq qilish usullari turlicha ahamiyat kasb etadi.

Demak, kontent tahlil bu matndagi axborotlarni tahlil qilishning qadimiy usulidir. Tarixdan mavjud kontent tahlil usullarining rivojlanish tendensiyasini uch bosqich asosida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. 30-yillarning so'ngi va XX asrning boshlaridagi davr. Ushbu davrda ko'proq ma'lum bir siyosiy ahamiyatga ega hujjatlarning tarkibiy qismi o'rganilgan.

2. G. Lassuel va B. Berlson nazariyasiga asoslangan tahlil usullari. Bu XX asrning 50 yillaridan boshlab amaliyotda qo'llanilgan.

3. XX asrning so'ngidan boshlab to internet global tarmog'i rivojlangan davrga qadar avj olgan avtomatlashtirilgan dasturiy kontent tahlilni misol qilish mumkin<sup>22</sup>.

Ba'zi nazariy manbalarga ko'ra kontentlarni o'rganish amaliyoti AQShning matbuot nashrlarini tahlil qilishdagi faoliyatidan ham kirib kelganligini ta'kidlash kerak. Ushbu amaliyotga ko'ra matbuot nashrlari izchil ravishda doimiy o'rganilib ularning davriy rivojlanish tendensiyalari hosil qilib borilgan. Masalan, Devid Uilkoks 240 dan ortiq gazeta nashrlarini tahlil qqlish orqali ularni turli usullarda rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqqan edi<sup>23</sup>.

Xulosa qilib aytganda tarixdan kontentni tahlillash metodikasi jurnalistikaga turli sohalar va fanlardan integratsiya bo'lib kirib kelgan. Unda biz sotsiologik tadqiqot usullaridan tortib harbiy yo'nalishdagi o'ziga xoslik belgi va usullarni ham topishimiz mumkin. Har bir yo'nalishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib tadqiqotchilar mavzu tanlashi va yangidan yangi o'rganish usullarini ham qo'shishlari mumkin. Shuningdek matnni o'rganish Bilan bog'liq bir qator yangi kontentni tahlillash amaliyoti SMM strategiya, kopiraytingda proof xizmatlari ham keyingi amaliyot hisoblanadi.

<sup>22</sup> <https://studfile.net/preview/3494907/page:53/>

<sup>23</sup> Социология интернет-СМИ: Учебное пособие / Фомичева И.Д. – М.: Факультет журналистики МГУ им. М.В. Ломоносова, 2005. 21стр.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sotsiologiya internet-SMI: Uchebnoye posobiye / Fomicheva I.D. – M.: Fakultet jurnalistiki MGU im. M.V. Lomonosova, 2005. – 79s.
2. Ahuvia, A. (2001). Traditional, interpretive, and reception based content analyses: Improving the ability of content analysis to address issues of pragmatic and theoretical concern.
3. Petitti D.B. Mete-analysis, Decision Analysis and Cost-effectiveness Analysis: Methods for Quantitative Synthesis in Medicine, 2nd ed. New York: Oxford University Press, 2000.
4. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-312-318>
5. Saodat, S. et al. Specificity of Massmedia Aspect in Media Text Formation. Ilkogretim Online, [s. l.], v. 20, n. 5, p. 455–460, 2021. DOI 10.17051/ilkonline.2021.05.48. Disponível em: <https://research.ebsco.com/linkprocessor/plink?id=9d30e639-1017-3a08-b0b9-c13cf7171871>. Acesso em: 7 jun. 2024.

## **ИМИДЖ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ТЕЛЕВИДЕНИЯ ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ МЕНТАЛИТЕТА**

**Елена МИРЗАЕВА**

*Главный редактор телеканала «Dunyo bo'ylab»  
Национальной телерадиокомпании Узбекистана,  
свободный исследователь Университета журналистики  
и массовых коммуникаций Узбекистана*

**Аннотация.** С развитием новых технологий в эпоху глобализации, телевидению выпадает роль социального и политического конструирования типа личности в обществе, напрямую связанная с пропагандой различных психологических установок и образов поведения. Современное узбекское телевидение, являясь четвертой властью, зачастую навязывая зрителю определенные мировоззренческие ориентации, эффективно и законно обосновывая их, тем не менее, подчиняется, скорее на подсознательном уровне, ментальности, присутствующей в нашем современном обществе, понимая и принимая как данность тот факт, что подобные установки воспринимаются телеаудиторией позитивно и адекватно, не вызывая негатива и отторжения, и даже более того, постепенно ведут к укреплению позиций и имиджа ведущего и самого телевизионного проекта его представляющего. Данная статья ставит перед собой цель – сделать анализ трансформации журналистской подачи информации телеведущим с точки зрения менталитета, сохранения имиджа и национальных